

“O‘ZAVTOSANOAT” AJning
(tarkib korxonalarning yig‘ma
ko‘rsatkichlari bilan)

**2025-yil uchun
BIZNES-REJASI**

**Toshkent - 2025
MUNDARIJA**

I. Jamiyat va tarmoq to'g'risida umumiy ma'lumot.

1.1 Jamiyat bo'yicha umumiy ma'lumot.

1.2 Jamiyatning qisqacha tarixi va erishilgan yutuqlari.

1.3 Jamiyatning tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarmoq korxonalari to'g'risida qisqacha ma'lumot.

1.4 Kadrlar siyosati, yangi ish o'rinlarni yaratish, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish.

II. Jamiyat va uning korxonalarini islox qilish.

2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi.

2.2 Isloh qilishning 2025-yil uchun rejasi.

III. Bozor va marketing rejasi.

3.1 Ichki bozor faoliyati.

3.2 Eksport bozorlaridagi faoliyati.

IV. Ko'rsatkichlar

4.1 Ishlab chiqarish rejasi.

4.2 Investitsiya faoliyati.

4.3 Mahalliyashtirish dasturi.

V. Samaradorlik ko'rsatkichlari

“O‘zavtosanoat” AJning 2025-yilga mo‘ljallangan biznes-rejasi boshqaruv apparatining hamda tarkib korxonalarining umumlashtirilgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha shakllantirilgan. Bunda tarmoq korxonalarining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha, jumladan ishlab chiqarish, eksport, investitsiya faoliyati, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda moliya-xo‘jalik faoliyati aks ettirilgan.

I. Jamiyat va tarmoq to‘g‘risida umumiy ma’lumot

1.1 Jamiyat bo‘yicha umumiy ma’lumot

“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati.

Tarmoq: Avtomobil sanoati.

2025-yilning 1 aprel holatiga “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi 1 822,9 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 100 foizlik aksiya paketi bilan jamiyatning yagona aksiyadori hisoblanadi.

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 13.

STIR: 201053918

Jamiyat tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha boshqaruv xodimlarining umumiy soni – 100 birlik (ichki audit xizmatidan tashqari).

1.2 Jamiyatning qisqacha tarixi, 2024-yil va 2025-yil I chorakda erishilgan yutuqlari

1994-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “O‘zavtosanoat” O‘zbek avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi tashkil etilgan, 2004-yilda “O‘zavtosanoat” assotsiatsiyasi ishlab chiqarish boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida aksiyadorlik kompaniyaga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “2017-2021 yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3028-sonli qaroriga asosan “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi tahrirlarda jamiyat deb yuritiladi) tashkiliy-huquqiy tuzilishi aksiyadorlik kompaniyasidan aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirilgan.

Bugungi kunda sohada “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati doirasida birlashtirilgan va bevosita 30 mingdan ortiq ishchi o‘rniga ega 50 dan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda,

200 dan ortiq chet el korxonalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. "O'zavtosanoat" AJ o'nlab katta va o'rta korxonalar bilan bir qatorda Koreya respublikasi, Germaniya, Xitoy, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlar kapitali bilan birgalikda tashkil etilgan kompaniyalarni birlashtiradi.

Nufuzli kompaniyalar bilan teng va o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatishga asoslangan ilgari odimlash strategiyasi raqobatbardosh mahsulotlarni dunyo standartlari darajasida ishlab chiqarishga qaratilgan.

Hozirgi kunda avtomobil sanoati respublika iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

2024-yil va 2025-yil I chorakda erishilgan yutuqlar

2024-yil, yanvar – BYD brendi SONG PLUS DM-i CHAMPION va SONG PLUS EV CHAMPION modellarining rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi.

2024-yil, yanvar – O'zbekiston dunyoda Chevroletning AQSH'dan keyingi ikkinchi yirik bozoriga aylandi.

2024-yil, yanvar – Davlat tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shenchjen shahrida Xitoyning yetakchi "BYD" kompaniyasi bosh qarorgohi va texnologiyalar markaziga tashrif buyurib, yangi energiya manbalarida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha "BYD Uzbekistan Factory" zavodini ishga tushirdi.

2024-yil, yanvar – "Shandong Heavy Industry Group" bilan Lovol qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlik kelishuvi imzolandi.

2024-yil, fevral – Chevrolet dunyodagi eng ishonchli avtomobil ishlab chiqaruvchilarning TOP 5 taligiga kirdi.

2024-yil, mart – "O'zavtosanoat" Kooperatsion aloqalarni kengaytirishga qaratilgan kooperatsion yarmarka tashkil etdi.

2024-yil, mart – "SamAuto" kompaniyasining SAZ LE60 rusumli yo'lovchi avtobuslari ilk bor partiyasini Qirg'izistonga eksport qildi.

2024-yil, mart – Davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligi reytingi baholandi. Unda "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati 82 ball bilan "yaxshi" natijani qayd etdi.

2024-yil, mart – “TTZ” MChJ quvvatlarida yangi turdagi pnevmatik seyalkalar ishlab chiqarilishi yolga qoyildi.

2024-yil, I chorakda – Yashil Iqtisodiyot dasturi doirasida 22 ta korxona 8 100 kVt quvvatga ega quyosh panellarini ishga tushirdi.

2024-yil, aprel – “TTZ” MChJ quvvatlarida yangi lazerli yer tekislagichlar ishlab chiqarilishi yolga qoyildi.

2024-yil, iyun – Jizzax viloyatidagi “BYD Uzbekistan Factory” qo’shma korxonasida ilk elektromobillar ishlab chiqarish boshlandi.

2024-yil, iyul – Qirg’iziston Prezidenti tashrifi doirasida Qirg’izistonda yengil avtomobillar va tijorat texnikasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “TULPAR MOTORS” MChJ zavodi ishga tushirildi.

2024-yil, iyul – “TTZ” MChJ Lovol mini traktorlari ishlab chiqarilishi boshlandi.

2024-yil, avgust – Mo’g’uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida O’zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar qatorini taqdim etuvchi Chevroletning birinchi rasmiy dilerlik markazi ochildi.

2024-yil, avgust – “TTZ” MChJ zamonaviy 100 ot kuchiga ega Lovol 1004 universal chopiq traktorining payvadlash, bo’yash va yig’uv jarayonlari o’zlashtirilib ishlab chiqarish yolga qoyildi.

2024-yil, sentabr – Gruziyada O’zbekistonda ishlab chiqarilgan Chevrolet avtomobillarining rasmiy sotuvlari boshlandi.

2024-yil, sentabr – “O’zavtosanoat” AJ tomonidan hududlardagi serqatnov yo’l bo’yidagi maktablar atrofida xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha loyiha amalga oshirilishi boshlandi.

2024-yil, sentabr – “TTZ” MChJ motokultivatorlar ishlab chiqarilishi boshlandi.

2024-yil, oktabr – “O’zavtosanoat” AJ Markaziy Osiyodagi eng yirik avtomobil ko’rgazmasi - Automechanika Tashkentda ishtirok etdi. Unda 20 dan ortiq mahalliy korxonalar 50 dan ortiq turdagi avtomobil ehtiyot qismlarini namoyish etdi.

2024-yil, oktabr – “UzAuto Motors” Chevrolet Cobalt Midnight modelini taqdim etdi.

2024-yil, noyabr – Koreyalik hamkorlar bilan “TTZ” MChJda traktorlarni muqobil siqilgan tabiiy gaz uskunasi bilan jihozlash bo’yicha pilot loyiha boshlandi.

2024-yil, dekabr – “UzAuto Motors Powertrain” zavodida yuqori bosimda quyish (HPDC) yordamida dvigatel bloklarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi quyish sexi ishga tushirildi.

2025-yil, fevral – “O‘zavtosanoat” AJ va tarkibiy tarmoq korxonalari 1-Xalqaro Namangan Avto Festivalida ishtirok etib, avtomobilsozlik sohasidagi yangiliklarni namoyish etdilar.

2025-yil, fevral – Namangan shahrida ilk bor tashkil etilgan “1-Xalqaro Namangan Avtofestivali” doirasida “O‘zavtosanoat” AJ hamda Namangan shahar hokimiyati hamkorligida “Eng yaxshi avtoust” ko‘rik tanlovi o‘tkazildi.

2025-yil, fevral – Asaka shahridagi “UzAuto Motors” AJda kompaniyaning dilerlik markazlari kafolat muhandislari ishtirokida yuqori darajadagi yirik anjuman bo‘lib o‘tdi.

2025-yil, mart – “Auto Rubber” MChJ xodimasi Kamoldinova Mukaramxon Usmonovna "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

2025-yil, mart – “UzAuto Motors” xodimasi Firuzaxon Temirova “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

2025-yil, aprel – “BYD Uzbekistan factory” QK MCHJ sifat menejmenti tizimi joriy etilgani uchun “Bureau Veritas” tomonidan “ISO 9001:2015” xalqaro sertifikatini tantanali tarzda topshirildi.

2025-yil, aprel – Toshkent shahrida “SAP Business Unleashed Innovation Day” tadbiri doirasida “UzAuto Motors” kompaniyasi “The largest SAP project go live in Public Sector” – Davlat sektorida ishga tushirilgan eng yirik SAP loyihasi nominatsiyasida taqdirlandi.

2025-yil, aprel – O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan e‘lon qilingan 2024-yilgi Ochiqlik indeksi natijalariga ko‘ra, “O‘zavtosanoat” AJ 89,3 ball to‘plagan holda davlat organlari va tashkilotlari orasida 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

1.3 Jamiyatning tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarkib korxonalari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi (sxema) va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi (sxema) 1 va 2-ilovalarda taqdim etilgan.

Faoliyat tuzilmasi:

Ishlab chiqarish yo‘nalishida:

“UzAuto Motors” AJ – yengil avtomobillar.

“BYD Uzbekistan Factory” MCHJ QK – BYD elektromobillari va gibridd avtomobillari.

“UzAuto Motors Powertrain” AJ – avtomobil dvigatellari.

17 ta mahalliyashtirish (avtokomponentlar) va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalari.

Yengil avtomobillarning savdosi va ularga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishida:

Tashqi bozorlar: MDH davlatlarida 4 ta distribyutor hamda 38 ta diler Chevrolet brendi ostida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ichki bozorlarda “UzAuto Motors” AJning jami 93 ta faol dilerlik korhonalari o'z faoliyatini olib bormoqda.

Shuningdek, Toshkent shahrida - 18 ta, Toshkent viloyatida - 15 ta, Andijon viloyatida – 5 ta, Buxoro viloyatida – 5 ta, Samarqand viloyatida – 5 ta, Namangan viloyatida – 6 ta, Navoiy viloyatida – 4 ta, Qashqadaryo viloyatida – 5 ta, Xorazm viloyatida – 5 ta, Farg'ona viloyatida - 10 ta, Sirdaryo viloyatida – 3 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 5 ta, Jizzax viloyatida – 4 ta, Surxondaryo viloyatida – 3 ta dilerlik korxonalari tomonidan “Chevrolet” brendi (D2/D3) standartlariga asosan yagona korporativ uslubga keltirilishi bo'yicha talablar bajarilgan.

Kadrlar tayyorlash yo'nalishida:

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti qoshidagi Akademik litsey.

1.4 Kadrlar siyosati, yangi ish o'rinlarni yaratish, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish:

Jamiyat rejalashtirayotgan strategik maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy mezonlaridan biri - bu mutaxassislarni tayyorlash uchun ajralmas va muntazam tizimni yaratishdir, bunda asosiy o'rinda tizim korxonalarini muhandis-texniklar, moliyachi-iqtisodchilar va biznesni boshqarish yo'nalishidagi malakali mutaxassislarni bilan ta'minlash dolzarb o'rin egallaydi.

Soha uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi eng muhim o'rinni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti egallaydi va bugungi kunda Universitet tomonidan Jamiyat hamda tizim korxonalari uchun avtomobilsozlik sanoatining o'ziga xos muhandislik, dizayn salohiyatini yaratish va rivojlantirishda asosiy bo'g'inga aylangan. Bundan tashqari Jamiyat va tizim korxonalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda Respublikadagi muhandislarni

tayyorlovchi xalqaro va mahalliy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

TTPUdan "dual degree" yo'nalishida bugungi kunda 247 nafar xodimlar tahsil olishmoqda, bundan tashqari 751 nafardan ziyod korxona xodimlarini oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistratura yo'nalishida korxonalar hisobidan o'qitilmoqda. Bu bilan, o'z navbatida, soha bo'yicha malakali mutaxassislarning oliy ma'lumotli bo'lishlari ta'minlanadi.

"O'zavtosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi tarmoq korxonalarida kadrlar malakasini ta'minlashning asosiy yo'nalishi kadrlar zaxirasini yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish hisoblanib, bunga quyidagilar kiradi:

1. Xodimlarni tayyorlash - umumiy va maxsus bilimlar darajasini oshirish, mutaxassislik bo'yicha amaliy ish tajribasini oshirish – 4 497 nafar;

2. Maxsus dasturlar bo'yicha o'quv markazlarida o'qitish orqali malaka va kasbiy mahorat darajasini oshirish – 2 143 nafar;

2.1. Korxona ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash – 14 724 nafar;

2.2. Dual amaliyot dasturi bo'yicha texnikum va kollej talabalarini ishlab chiqarish sexlariga jalb etish bo'yicha 250 nafar hamda 997 nafari zaxira hisobida suhbatdan o'tkaziladi;

2.3. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yuqori salohiyatga ega talabalarni ishlab chiqarish jarayonlari tanishtirish, tajriba orttirish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va kadrlar zaxirasini shakllantirish – 1 855 nafar;

5+1 moduli bo'yicha OTMning salohiyatli talabalari uchun korxona hududida o'qishlarini tashkillashtirish - 241 nafar.

3. Soha uchun kadrlar zaxirasini yaratish va yangilab borish.

Shu bilan birga, 2025 yilda tarmoq korxonalarida jami 900 ta yangi ish o'rinlarni yaratish rejalashtirilmoqda.

“O‘zavtosanoat” AJning boshqaruv organi to‘g‘risida ma’lumot

No	F.I.SH.	Lavozimi, ish joyi	Korxonadagi ulushi
I. Aksiyadorlar (ishtirokchi, mulkdor)			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Aksiyador (ishtirokchi, mulkdor)	100 foiz
II. Kuzatuv kengashi a‘zolari			
2.1	Qo‘chqorov Jamshid Anvarovich	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri	-
2.2	Xolmurodov Nozimjon Kosimovich	O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining birinchi o‘rinbosari	-
2.3	Abdinazarov Bobur Qalandarovich	“UzAssets” AJ Boshqaruv raisi	-
2.4	Xoljurayev Azizbek Salimjon o‘g‘li	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Boshqarma boshlig‘i	-
2.5	Bo Inge Andersson	Mustaqil a‘zo	-
2.6	Andreas Edinger	Mustaqil a‘zo	-
2.7	Shariq Khan	Mustaqil a‘zo	-
III. Ijro organi			
1.	Rozukulov Ulugbek Ubaydullayevich	“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik Jamiyati boshqaruv raisi	-
2.	Rahmonov Bahodirjon Solijonovich	Boshqaruv raisining mahalliy lashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari	-

3.	Muxamedov Diyor Raufovich	Boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha o'rinbosari	-
4.	Turayev Farxod Razakovich	Boshqaruv raisining Ishlab chiqarish masalalari bo'yicha o'rinbosari	-
5.	Xidoyatov Davron Abdulpattaxovich	Boshqaruv raisining Innovatsiya va investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari	-
6.	Saxapov Aleksandr Aleksandrovich	Boshqaruv raisining Sotuvni rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari	-
7.	Bikkulov Rinat Anvarovich	Boshqaruv raisining kadr va rejim bo'yicha o'rinbosari	-

II. Jamiyat va uning tarkibidagi korxonalarini islox qilish

2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4397 sonli "O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qaroriga muvofiq 2020-yilda "O'zavtosanoat" AJ hamda Boston Consulting Group xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun avtomobil sanoati strategiyasi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan strategiyaga ko'ra quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

1. Avtomobil sanoatida faoliyat ko'rsatayotgan yoki faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan kompaniyalarga teng shart-sharoitlarni yaratish;

2. O'zbekiston Respublikasining avtomobil sanoatini boshqarish modelini isloh qilish (transformatsiya) va avtomobil sanoati tizimidagi korxonalarda davlat ishtirokini (ulushini) qisqartirish;

3. Yangi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va O'zbekiston hududida ishlab chiqarishni tashkil etish;

4. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish va bozorga olib chiqish;

5. Elektromobillarni ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'rish;

6. Ishlab chiqarish jarayonlarini maqbullashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston-2030” Strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli farmoniga asosan 2030-yilgacha avtomobilsozlik sohasida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini 1 million donaga yetkazish belgilangan.

2.2 Isloh qilishning 2025-yil uchun rejasi:

“O'zavtosanoat” AJ korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy holatini barqarorlashtirish va yanada yaxshilash.

Tizimda boshqarish modelini isloh qilish (transformatsiya) yuzasidan boshqaruv tizimini takomillashtirish, jumladan markaziy apparat hamda korxonalar tashkiliy tuzilmalarini xorijiy tajribalarni o'rgangan holda o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish. Shuningdek, korxonalarni boshqarish jarayonlariga tajribali, ixtisoslashgan va/yoki yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli va 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli Farmonlariga asosan 2025-yilda “O'zavtosanoat” AJda arxiv ishini optimallashtirish hamda zamonaviy avtomatizatsiyalashtirilgan tizimni integratsiya qilish rejalashtirilmoqda.

Operatsion samaradorlikni oshirish orqali xarajatlarni qisqartirish, tannarxni pasaytirish, bunda import mahsulotlarini muqobil yetkazib beruvchilarga o'tkazish va ishlab chiqarish hajmlarini oshirish orqali ishlab chiqarish bilan bog'liq o'zgarmas xarajatlarni optimallashtirish.

Avtomobillar ishlab chiqarish geografiyasini kengaytirish hamda eksport hajmini oshirish maqsadida, jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan avtomobillar qo'shni davlatlarda SKD va CKD texnologiyasi asosida ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo'yicha ishlarni davom ettirish.

Yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sonli va 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli Qarorlariga muvofiq “O'zavtosanoat” AJ va uning tizim korxonalarida energiya sarfini qisqartirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga

o'tish, ularning ishlab chiqariladigan quvvatini ko'paytirish va energetik xavfsizlikni oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2025-yilning 1-aprel holatiga "O'zavtosanoat" AJ va tizim korxonalari (22 ta) tomonidan jami quvvati 10 544 kVt ga teng quyosh panellari o'rnatildi. Shundan, 4 372 kVt - o'z mablag'lari hamda 6 172 kVt - "Yashil energiya" MCHJ va boshqa tashkilotlar hisobidan.

Shu bilan birga, 2025-yilning aprel-dekabr oylarida qo'shimcha jami 5 155 kVt quyosh panellarini o'rnatish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda, jumladan:

- "UzAuto Motors" AJ – 1 000 kVt;
- "UzAuto Motors Powertrain" AJ – 450 kVt;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK – 250 kVt;
- Boshqalar – 3 455 kVt.

2025-yilda BCG kompaniyasi hamkorligida "O'zavtosanoat" AJni 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasini yangilash, shuningdek, bozorning joriy holatini, avtomobilsozlik tarmog'ining mintaqaviy va jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda Kompaniyaning rivojlantirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "UzAuto Motors" AJ tomonidan 2023-yil uchun mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish to'g'risida"gi hisoboti 2024-yil sentyabr oyida jamoatchilikka e'lon qilindi. Ushbu loyihada xalqaro audit kompaniyasi "Erns & Young Advisory" MCHJ ESG hisobotini tayyorlashda yordam beruvchi tashqi konsultant sifatida jalb etildi va xalqaro standartlarga asosan muvaffaqiyatli tayyorlandi. Ushbu hisobot respublikadagi boshqa kompaniyalarning oshkor etish darajasiga qaraganda eng yuqori ko'rsatkichli oshkor etilgan hisobot bo'lganligini ta'kidlandi.

Yuqoridagi Farmonda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarish, mustaqil tashqi audit tekshiruvdan o'tkazish va xalqaro ESG reytingini olish yuzasidan joriy yilda kompaniya tomonidan 2024-yil uchun mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish to'g'risida"gi hisobotini mustaqil tayyorlash (self-reporting) va uni tashqi tekshiruvdan o'tkazish rejalashtirilgan. Shu sababli, kompaniya tomonidan xalqaro miqyosda tan olingan xalqaro audit kompaniyalari ishtirokida ushbu hisobotni tashqi verifikatsiyadan o'tkazish bo'yicha tender tashkillashtirilib joriy yilning aprel oyida e'lon qilindi.

Hozirda ushbu loyihani samarali amalga oshirish maqsadida kompaniya tomonidan ishchi guruh shakllantirildi, “UzAssets” AJ mutaxassislari bilan haftalik uchrashuvlar tashkillashtirildi, shuningdek, hisobot loyihasini ishlab chiqish, ma’lumotlar yig’ish va uni qayta ishlash bo’yicha ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, avtomobilsozlik tarmog’ida savdo hajmini oshirish va moliyalashtirishning muqobil mexanizmlarini yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarga lizing va avtokredit xizmatlarini ko’rsatish, avtodilerlar va avtomobilsozlik tarmog’ining boshqa qatnashchilariga tovar zaxiralarini moliyalashtirish va aylanma mablag’larini taqdim etish hamda “UzAuto Motors” AJ ekotizimi uchun moliyaviy platformani rivojlantirish maqsadida “Ipoteka-bank” ATIB (OTP Group) bilan hamkorlikda qo’shma korxona tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, 2024-yil bahor mavsumida atrof-muhitga ta’sir xavfi bo’yicha yuqori va o’rta darajadagi xavfli toifaga mansub “O’zavtosanoat” AJning tizim korxonalari tomonidan “yashil belbog”lar barpo etildi (7 korxona bo’yicha jami 62 927 dona ko’chat ekildi).

Kuz-qish mavsumi davomida yana 13 798 dona ko’chat ekilib reja to’liq bajarildi.

Sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirish.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O’zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6079-son Farmoni hamda 2023-yil 25-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-162-son Qaroriga muvofiq, “O’zavtosanoat” AJ va uning tizim korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo’yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish yuzasidan bir qancha loyihalar joriy qilish ishlari bajarib kelinmoqda.

“UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyati 2025-yilda raqamlashtirish bo’yicha:

1. Ishlab chiqarilgan yengil avtotransport vositalarini onlayn sotish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek avtomobillarni bo’lib to’lash asosida sotib olgan mijozlarga UzAvtoSavdo mobil ilovasi orqali to’lovni amalga oshirish hamda amalga oshirilgan to’g’risidagi ma’lumotlar tarixi bilan xabardor qilib imkoniyatini yaratish.

2. Avtomobil ehtiyot qismlarini dillerlarga onlayn sotish tizimini modernizatsiya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlovchi apparat vositalarini joriy qilish hamda yagona identifikator va klassifikatorlardan foydalanish, foydalanuvchini raqamli identifikatsiya qilish orqali elektron savdo maydonida amalga oshirilayotgan harid jarayonlarini shaffofligini oshirish.

3. Edo.uzautomotors.com elektron hujjat aylanish tizimida yagona identifikator va klassifikatorlardan foydalanish hamda tizimining mobil android va ios mobil ilovalarining yangi talqinini ishlab chiqish.

4. SAP S4/HANA tizimi orqali amalga oshirilayotgan biznes jarayonlarni optimizatsiya qilish va harajatlarni qisqartirish maqsadida:

- ma'lumotlar bazalarini arxivlash orqali serverlardagi resurslar samaradorligini oshirish va serverlarga bo'ladigan yuklamalarni kamaytirish;

- MSFO (Xalqaro moliyaviy hisobotlar standarti) modulini to'liq ishga tushirish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonlar hisobini yuritish.

5. UzAvtoSavdo platformasini Adliya vazirligining yagona tizimi bilan integratsiya qilgan holda, muddatli to'lovga sotilgan avtomillarni ta'qiqqa qo'yilgan yoki qo'yilmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratish.

6. www.uzautomotors.com mijozlar murojaatlarini sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalangan holda avtomatik murojaatlarga javob qaytarish funksionalini yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

“BYD Uzbekistan Factory” MChJda 2025-yilda raqamlashtirish bo'yicha:

1. SAP S4/HANA resurslar va resurslar oqimini nazorat qilish maqsadida tizimini (Material Management, Production Planning, Finance, Control Operation) to'liq ishga tushirish va axborot texnologiyalari bo'yicha xodimlarni SAP S4/HANA tizimidan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish.

2. MES ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va raqamlashtirish va QMS ishlab chiqarishda sifat jarayonini avtomatlashtirish va raqamlashtirish tizimini joriy qilish

3. Jamiyat foydalanuvchilariga axborot texnologiyalari yo'nalishida qulayliklar yaratish maqsadida, Microsoft Exchange

kororporativ pochta, antivirus dasturiy ta'minot, VPN dasturiy vositalarini joriy qilish va axborot texnologiyalari infrastrukturasi zamonaviy talablarga muvofiq rivojlantirish.

4. Ishlab chiqarish korxonasi hamda binoning ofis qismini to'liq kuzatuv vositalari bilan jixozlash.

5. Jamiyatdagi ma'lumotlarning data markazi xonasini uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida, dizel generator uskunalarini joriy qilish.

“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatida 2025-yilda raqamlashtirish bo‘yicha:

1. Jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash hamda internet tarmog'idagi zararli veb-saytlardan himoya qilish va internet tarmog'i orqali bo'ladigan taxdidlardan himoyalash maqsadida tarmoqlararo ekran (Firewall) apparat uskunasi joriy qilish va doimiy ravishda monitoring qilib borish;

2. Jamiyat axborot resurslarini zararkunanda dasturiy ta'minotlarda himoya qilish va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida Antivirus dasturiy ta'minotining litsenziyalari muddatini uzaytirish;

3. Jamiyadagi mavjud serverlar uskunalarining xotira xajmini oshirish orqali biznes jarayonlar samaradorligini oshirish;

4. Ma'nan eskirgan ofis texnikasi jihozlarini yangilash orqali ish faoliyati samaradorligini oshirish;

5. Jamiyatdagi mavjud tarmoq infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalarini qo'llagan holda, modernizatsiya qilish orqali, ishlash samaradorligi va uzluksizligini oshirish;

6. Edo.uzavtosanoat.uz elektron hujjat aylanish tiziminining yangi talqinini joriy qilish hamda tizimda Kadrlar boshqaruvi jarayonlarini avtomatlashtirish modulini yaratish;

7. Edo.uzavtosanoat.uz elektron hujjat aylanish tiziminining IOS tizimidagi mobil ilovasini ishlab chiqish;

8. Jamiyatdagi Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlariga muvofiq hisobotlar chiqarish hamda kadrlash boshqaruvi jarayonlari 1C tizimi orqali raqamlashtirish maqsadida mavjud server uskunasi modernizatsiya qilish;

9. Axborot xavfsizligi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi xodimlarini zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish;

10. Jamiyat faoliyatiga doir bo'lgan qog'oz ko'rinishidagi arxiv hujjatlarini skanerlash va elektron ko'nishga o'tkazish orqali arxiv hujjatlarining elektron bazasini shakllantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

III. Bozor va marketing rejasi

3.1 Ichki bozor faoliyati

“UzAuto Motors” AJ ichki bozorning dilerlik tarmog'i faoliyatini takomillashtirish bo'yicha doimiy ish olib boradi.

Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish sohasida hamkor korxonalar bilan birga mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida “yo'lda yordam” xizmatlarini kengaytirish, “CRM” (mijozlar bilan munosbatlarni boshqarish) tizimini joriy qilish, “Uzavtosavdo” platformasida qo'shimcha xizmatlar tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Ehtiyot qismlar sotuvi yo'nalishida avtomobil butlovchi qismlari ishlab chiqaruvchi xususiy korxonalar bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Avtomobil va ehtiyot qismlar sotuvini rag'batlantirish maqsadida va mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida avtomobillar sotuvida vaucher berish mexanizmini joriy qilish rejalashtirilgan.

Bozorga yangi brendlar kirib kelgani hisobiga 2025 yilda 20 ming dollardan baland narxdagi avtomobillar segmentida raqobat kuchayishi davom etishi kutilmoqda. Bunga javoban, kompaniya 2025 yil davomida o'z mahsulotlarini ilgari surish uchun quyidagi chora-tadbirlar rejalashtirilgan:

- SUP modellarni yangilangan turlarini olib kelish. Bunda “Captiva” “Equinox PHEV”, “Traverse” va “Tahoe” modellarining yangilangan turlari nazarda tutilgan;

- xaridorlarga “Onix”, “Tracker”, “Captiva”, “Equinox”, “Traverse”, “Tahoe” modelini qulay va hamyonbob shartlarda kreditga olish imkoniyati yaratish;

- “Onix”, “Captiva”, “Equinox”, “Traverse”, “Tahoe” modellari barcha komplektasiyalariga chegirmalar e'lon qilish;

- “Onix” va “Tracker” modellarida xaridorlarga qulaylik yaratish uchun metan va propan gazida yurishi bo'yicha keng ma'lumotlar tarqatish ishlarini olib borish;

- yangi avtomobillar sotuv tizimini joriy etish orqali dilerlik markazlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga erishish hamda amaldagi sotuv mexanizmidagi kamchiliklari bartaraf qilish.

“BYD Uzbekistan” MCHJ QK tomonidan 2023-yilda 21 ta rasmiy dilerlik markazlari o'z ish faoliyatini boshlab, BYD “Song Plus Champion DMI”, “Song Plus Champion EV”, “Chazor”, “Song Pro”, “Seagull”, “E2”, “Yuan Up”, “Han” avtomobillarini sotuvi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, 2025-yilda BYDning yangi rusumli avtomobillarini sotuvini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

3.2 Eksport bozorlaridagi faoliyati

“UzAuto Motors” AJ 2025-yilda “Onix” rusumidagi avtomobil CKD uslubida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish rejalashtirilgan.

Ozərbayjon Respublikasining OOO “Azermash CP” ishlab chiqarish maydonlarida SKD to'plamlari shaklida eksport qilinayotgan “Cobalt”, “Damas/Labo”, “Malibu”, “Tracker”, “Lacetti”, “Equinox”, “Tahoe”, “Traverse” avtomobillari bilan bir qatorda “Onix” avtomobilini yig'ish va bozorida sotish yo'lga qo'yildi.

2025-yilda OOO “Azermash CP” (Ozərbayjon Respublikasi)ga yangi SUP modellarining eksporti amalga oshiriladi.

Bozorlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va mahalliyashtirish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarning sotish hajmini oshirish maqsadida xalqaro avtomobil ko'rgazmalari va taqdimotlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

Sotishdan keyingi xizmatni amalga oshirish maqsadida tashqi bozorlardagi distribyutor/dilerlarga ehtiyot qismlarni yetkazib berish ishlari davom ettiriladi.

“BYD Uzbekistan” MCHJ QKning hozirgi kunda Tojikistonda rasmiy dillerlik markazi ochilgan bo'lib ilk avtomobillari yetkazib berilgan. Shu bilan birga, Ozərbayjon va Qozog'ston Respublikalarida dilerlik markazlari ochish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

IV. Ko'rsatkichlar

“O'zavtosanoat” AJning 2025-yil uchun maqsadli prognoz ko'rsatkichlari hamda o'sish sur'atlari parametrlari 3-ildavda taqdim etilgan.

4.1 Ishlab chiqarish rejasi

2025 yilda 397 ming dona yengil avtomobillar ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda, jumladan 375 ming dona CHEVROLET, 20 ming BYD va 2 ming dona Volkswagen turdagi avtomobillari.

2025-yilda “Yangi energiya manbaalarida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil etish” ishga tushirilgan loyihasi doirasida 20 ming dona BYD elektromobil va gibrid avtomobillarini ishlab shiqarish rejalashtirilgan.

Buning hisobiga 2025-yil yakunida tarkib korxonalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 71,3 trln. so‘mni, 2024-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 103,0 foizga tashkil etishi rejalashtirilgan.

4.2 Investitsiya faoliyati

Davlat Investitsiya dasturiga kiritilgan, 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan, loyihalar jamiyat tarmoq korxonalari tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. 2025-yilda quyidagi yirik loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan, shu jumladan:

- “UzAuto Motors” AJda yangi presslash va payvandlash quvvatlarini yaratishni amalga oshirish;
- “UzAuto Motors” AJda Chevrolet Cobalt modelini ishlab chiqarish hayotiy siklini qisman yangilash (MCM) orqali uzaytirish;
- “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filialida Damas va Labo avtomobillarining ishlab chiqarish quvvatini 150 ming donaga oshirish va hayotiy siklini uzaytirish bo‘yicha modernizatsiya qilish;
- “BYD” kompaniyasi elektro va gibrid avtomobillarni ichki va tashqi butlovchi qismlarini mahalliyashtirish (bamber, oyna, o‘rindiqlik, plastik qismlar va boshqalar);
- “Auto Spring Components” MCHJda Cobalt va Damas modellari cho‘yan butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish.

4.3 Mahalliyashtirish dasturi

Mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha tarmoq korxonalari tomonidan 16 loyiha doirasida 8,8 trln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Yangi loyihalar bo‘yicha:


Alyumin diska va amortizator prujina loyihalarini hamkorlar bilan kelishish, texnik iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun texnik topshiriq ishlab chiqish, uning asosida texnik iqtisodiy asoslarni tayyorlash va “Loyihalar va import kontraktlarining kompleks

ekspertizasi markazi” DUKga ekspertizadan utkazish va loyihani amalga oshirishni boshlash rejalashtirilgan.

V. Samaradorlik ko'rsatkichlari.

“O'zavtosanoat” AJ korpopativ boshqaruvni samarali tashkil etish, Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash maqsadida jamiyat tomonidan 2025-yil uchun samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan bo'lib, 4-ildavada taqdim etilgan.

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi



**“O‘zavtosanoat” AJning
tashkiliy tuzilmasi**

YAGONA AKSIYADOR

**Kuzatuv kengashi
(ko‘mitalar)**

Boshqaruv raisi

Ichki audit xizmati
3

Boshqaruv raisi yordamchisi

Boshqaruv raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili qonun xujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi
1

Boshqaruv raisining umumiy masalalari bo'yicha maslahatchisi
1

Boshqaruv raisining Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari

Xaridlar transformatsiyasi bo'yicha ofisi
5

Axborot xavfsizligi va axborot texnologiyalari rivojlantirish boshqarmasi
3

Mahalliyashtirish va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish boshqarmasi
5

Ma'muriyat va hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi
5

Boshqaruv raisining Sotuvni rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari

Savdoni rivojlantirish, va marketing boshqarmasi
6

Sotishdan keyingi xizmatni rivojlantirish boshqarmasi
3

Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik xizmati
2

Boshqaruv raisining Innovatsiya va investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari

Tashqi iqtisodiy kooperatsiya, investitsiya va innovatsiya departamenti
10

Boshqaruv raisining Ishlab chiqarish masalalari bo'yicha o'rinbosari

Ishlab chiqarishni iqtisodiy prognozlash boshqarmasi
3

Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi
4

Harajatlarni optimallashtirish va tannarxi nazorati boshqarmasi
4

Boshqaruv raisining Transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari

Transformatsiya bo'yicha loyiha ofisi
7

G'aznachilik va moliya boshqarmasi
4

Xalqaro moliyaviy hisobotlar va metodologiya boshqarmasi
5

Korporativ va mulkiy munosabatlar boshqarmasi
3

Boshqaruv raisining Kadr va rejim masalalari bo'yicha o'rinbosari

Birinchi bo'lim
1

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi
4

Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti
13

Yuridik boshqarma
3

Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni - 100 birlik (ichki audit xizmatidan tashqari).

"O'zavtosanoat" AJning 2025-yil uchun maqsadli reja ko'rsatkichlari hamda o'sish sur'atlari parametrlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2023-yil amalda	2024-yil		2025-yil reja	O'sish sur'ati, %
				amalda	o'sish sur'ati, %		
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	mlrd so'm	64 598,2	69 274,0	102,9%	71 334,1	103,0%
2	Asosiy mahsulot turi						
	JAMI yengil avtomobillar, shu jumladan	dona	396 075	396 107	100,0%	397 000	100,2%
	CHEVROLET avtomobillari	dona	395 395	391 903	99,1%	375 000	95,7%
	BYD avtomobillari	dona	-	4 004	-	20 000	5 bar.
	VOLKSWAGEN avtomobillari	dona	680	200	29,4%	2 000	10 bar.
3	Investitsiyalarni o'zlashtirish	mln doll	145,8	243,1	166,7%	85,8	x
	loyihalar soni	soni	8	8	x	21	x
4	Mahalliyashtirish dasturi	mlrd so'm	18 988,1	23 769,5	125,2%	8 827,2	x
	loyihalar soni	soni	15	24	x	16	x
5	Yangi ish o'rinlar yaratish	soni	4 339	2 395	55,2%	900	37,6%

"O‘zavtosanoat” AJning 2025-yil uchun asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlar
REJASI (ijro apparati bo'yicha)

№	Ko‘rsatkichlar nomi	I-chorak					I-yarim yillik					9-oylik					2025-yil				
		ko‘rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPI	ko‘rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPI	ko‘rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPI	ko‘rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KPI
	A	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100
O‘rnatilgan:																					
1.	Sof foyda rejasini bajarilishi (mln.so‘m)	20	179				20	29 765				20	79 715				20	136 362			
2.	Aktivlar rentabelligi (foiz)	20	0,0001				20	0,005				20	0,013				20	0,022			
3.	Qoplash ko‘effitsiyenti (to‘lov qobiliyati)	20	20,198				20	19,581				20	20,402				20	21,774			
4.	Moliyaviy mustaqillik ko‘effitsiyenti	20	47,349				20	47,360				20	48,764				20	51,414			
5.	Dividend to‘lovlarini rejaga asosan to‘lanishi (mln.so‘m)	-	-				-	-				10	grafik asosida				10	grafik asosida			
6.	Aksiyadorlarning investitsiyalari rentabelligi	20	0,0001				20	0,016				10	0,044				10	0,075			
Jami		100,0					100,0					100,0					100,0				